

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

Iskandarova Maftuna Asomiddin qizi va

Muminbayeva Nelufar Davronbek qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Turizm fakulteti talabalari

e-mail: mominbayevanilufar1@gmail.com

e-mail: iskandarovamaftuna545@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarda ingliz tilida gapirish ko'nikmasini shakllantirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Til o'rganish jarayonida bolaning yosh xususiyatlari, motivatsiya va kommunikativ yondashuvning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Shuningdek, interaktiv metodlar, o'yinli ta'lim, audiovizual vositalardan foydalanish va til muhitini yaratish kabi samarali strategiyalar haqida so'z boradi. Maqolada ota-onalar va o'qituvchilarning roli ham muhim omil sifatida ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilida erkin gapirish ko'nikmasini shakllantirishga yordam beruvchi innovatsion yondashuvlarni tavsiya etadi.

Kalit so'zlari. Ingliz tilini o'rganish, gapirish ko'nikmasi, maktab yoshidagi bolalar, til o'rganish metodikasi, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar, til muhitini yaratish, o'yinli ta'lim, audiovizual vositalar, motivatsiya, suhbat va dialoglar, mustaqil o'rganish, talaffuzni rivojlantirish, ota-onalar va o'qituvchilar roli, til amaliyoti.

Abstract. This article examines effective methods for developing English-speaking skills in school-age children. It analyzes the role of age-related characteristics, motivation, and the communicative approach in the language learning process. Special attention is given to interactive methods, game-based learning, the use of audiovisual tools, and the creation of a language environment. The article also highlights the significant role of parents and teachers in language development. The research findings suggest innovative approaches that help foster fluent communication in English.

Keywords. Learning English, speaking skills, school-age children, language learning methodology, communicative approach, interactive methods, creating a language environment, playful learning, audiovisual tools, motivation, conversations and dialogues, independent learning, pronunciation development, the role of parents and teachers, language practice.

Аннотация. В данной статье рассматриваются эффективные методы формирования навыков устной речи на английском языке у детей школьного возраста. Анализируются возрастные особенности учащихся, роль мотивации

и коммуникативного подхода в процессе изучения языка. Особое внимание уделяется интерактивным методам, игровому обучению, использованию аудиовизуальных средств и созданию языковой среды. Также подчеркивается важная роль родителей и учителей в развитии языковых навыков. Результаты исследования представляют инновационные подходы, способствующие развитию свободного общения на английском языке.

Ключевые слова. *изучение английского языка, навыки говорения, дети школьного возраста, методика изучения языка, коммуникативный подход, интерактивные методы, создание языковой среды, игровое обучение, аудиовизуальные средства, мотивация, беседы и диалоги, самостоятельное обучение, развитие произношения, роль родителей и учителя, языковая практика.*

Kirish

Bugungi kunda jahon hamjamiyatida chet tillarida erkin muloqot qilish talabi oshib bormoqda. Dunyoning har bir burchagida chet tili-ingliz tilida og'zaki muloqot qila olishning qay darajada muhim ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bugungi jadal sur'atlarda rivojlanib borayotgan davrda chet tili (ingliz tili) ning har bir mutaxassis uchun qay darajada muhimligi barchamizga ma'lum. Hozirda qay bir yo'nalish bo'yicha faoliyat yuritishdan qat'i nazar har bir shaxsdan chet tilida muloqot qila olish talabi qo'yilmoqda, shuningdek, dunyoning top oliygohlari qatoridan joy olgan universitetlar: Harvard, Columbia, Jhons Hopkins kabi universitetlarda ham avvalo, ushbu talab qo'yilmoqda. Jumladan, yurtboshimizning " Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish "to'g'risida 2022-yilgi 34-sonli qarori asosida nafaqat oliy yoki o'rta maxsus ta'lim dargohlari balki maktabgacha ta'lim muassasalarida ham chet tilini o'rgatish ta'limning majburiy tarkibiga aylangan. Aynan shu kabi ma'suliyatni his etgan holda hozirgi kunda yoshlar chet tilida gapirish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun harakatlardir.¹

ASOSIY QISM

Gapirish ko'nikmasi til o'rganuvchilarning eng ko'p diqqat qaratadigan ko'nikma turi bo'lib, mazkur ko'nikmani shakllantirish biroz vaqt talab qiladi. Chunki, 1-2 so'z yodlab olib chet tilida ravon gapirib ketish mushkul. Buning uchun, albatta, mehnat va tajriba kerak bo'ladi. "Sen ingliz tilida gapira olasanmi?" yoki "Sen rus tilida gapira olasanmi?" degan savollarni ko'p eshitamiz. Lekin, hechkim "Sen chet tilida tinglay olasanmi yoki yoza olasanmi?" deb so'ramaydi. Bundan ko'rinib turibdi-ki, gapirish til o'rganuvchilar uchun barcha ko'nikmalardan ham ustun ekan. A.G. Solomatina ham:

¹Prezident Shavkat Mirziyoyev "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" PQ 34-son.19.01.2022

"Agar o'quvchi ingliz tilida erkin gapira olishga muvaffaq bo'lsa, demak u tilni o'rganishga erishgan bo'ladi." deb ta'kidlab o'tadi.²

Quyida bir nechta usullarni keltirib o'tamiz:

- Faol tinglash orqali o'rganish

Gapirishni rivojlantirishning birinchi bosqichi - bu tinglashdir. Tabiiy aksent va talaffuzni o'rganish uchun chet tilidagi podkastlarni tinglash, subtitrlardan foydalanib, yangi so'z va iboralarni yodlash, nutqning intonatsiyasini va talaffuzini e'tibor bilan kuzatish samarali natija beradi.

- So'z boyligini oshirish

Yangi so'z va iboralarni o'rganish gapirishni qulaylashtiradi. Buning uchun har kuni bir nechta yangi so'zni yodlab, ularni gaplarda qo'llash, tematik lug'atlar tuzib, mavzular bo'yicha so'zlarni eslab qolish, amaliyot jarayonida bilmagan so'zlarni yozib borib, keyin ularni o'rganish samarali usullardan biri.

- Talaffuzni yaxshilash

To'g'ri talaffuz gapirishdagi asosiy jihatlardan biridir. Talaffuzni yaxshilash uchun audio matnlarni tinglab, ularni qayta o'qishga harakat qilish, onlayn talaffuz vositalaridan foydalanib, so'zlarni to'g'ri aytishni o'rganish, o'z nutqini yozib, uni asl talaffuz bilan solishtirish kerak bo'ladi. Gapirishga tayyorlovchi topshiriqlar va mashqlar. Bunday topshiriqlar va mashqlar taqlid xarakteriga ega va turlicha emas. Bundan tashqari, ular o'qituvchi tomonidan qattiq nazorat qilinadi va faqat reproduktiv mashqlarning bir qismidir.

a) talaffuz va artikulyatsiyani yaxshilaydigan vazifalar va mashqlar va

b) so'z boyligini oshirish uchun vazifalar va mashqlar o'rtasida farq qilinadi.

Maktab yoshidagi 5-sinf dan katta bo'lgan bolalarda ingliz tilida gapirish qobiliyatini shakllantirishda quyidagi usullarni qo'llash samarali bo'ladi:

1. Interaktiv mashqlar. Bolalar ingliz tilida fikrlarini ifodalashlari uchun ularni turli vaziyatlarda gapirishga undash kerak. Masalan, ro'yxatlar, rasmlar, kartochkalar yoki video materiallar orqali muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga chaqirish mumkin.

2. Muloqot muhiti yaratish. Ingliz tilida muloqot qilish imkoniyatlarini yaratish muhimdir. Bolalar bilan suhbatlar, guruhli faoliyatlar, ingliz tilida gaplashuvchi do'stlar yoki o'qituvchilar bilan amaliy mashqlar tashkil etish kerak.

3. O'yinlar va ko'ngilochar mashqlar. O'yinlar yordamida til o'rganishni yanada qiziqarli qilish mumkin. Masalan, "word chain" o'yini, ro'yxat tuzish, qiziqarli viktorinalar yoki qiziqarli so'zlar bilan topshiriqlar bolalarga tilni o'rganishda yordam beradi.

² Соломатина Анна Геннадьевна «Методика развития умений говорения и аудирования учащихся посредством учебных подкастов (английский язык, базовый уровень) Москва 2011, 17-18 с

4. Qisqa va aniq gaplar qurish. Bolalarga qisqa, aniq gaplar tuzishni o'rgatish muhim. Dastlab oddiy iboralar va jumlar bilan boshlash, so'ngra ularni murakkablashtirish tilni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

5. Esitish va so'zlashni birlashtirish. Ingliz tilida eshitish va gapirishni birlashtirish zarur. Bolalar ingliz tilida eshitib, keyin o'zlari takrorlashlari kerak. Audio kitoblar, podkastlar, video materiallar yordamida bu jarayonni kuchaytirish mumkin.

6. Qayta-qayta takrorlash va tahrir qilish. Bolalar o'rganganlarini muntazam ravishda takrorlab, ularni to'g'ri talaffuz qilishga undash zarur. Dastlabki xatoliklarni tuzatish va ularni to'g'ri shaklda ishlatishga o'rgatish tilni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

7. Motivatsiya va ijobiy fikr. Ingliz tilida gapirishda o'zini erkin his qilish muhim. Bolalar uchun yaxshi muhit va ularning muvaffaqiyatlarini rag'batlantirish orqali o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish kerak.

8. Hikoyalar va suhbatlar. Bolalarni ingliz tilida qisqa hikoyalar yaratishga undash va o'z fikrlarini bildirishga rag'batlantirish ham foydalidir. Bu orqali bolalar tilni kengroq va tabiiyroq foydalanishni o'rganadilar.

Umuman olganda, ingliz tilida gapirishni o'rgatishda bolalarni muntazam ravishda amaliy mashg'ulotlar va ijobiy fikrlar bilan rag'batlantirish muhim.

Bularning barchasi ingliz tilini o'rganishni nafaqat samarali, balki qiziqarli va jonli qiladi, bolalarni tilni o'rganish jarayoniga yanada ko'proq jalb etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, chet tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlari, balki ularning kelajakdagi muloqot va professional hayotidagi muvaffaqiyati uchun ham zarurdir. Shu sababli o'qituvchilar bu borada yangicha yondashuvlarni sinab ko'rishlari va o'quvchilarning motivatsiyasini oshiruvchi usullardan foydalanishlari tavsiya etiladi. Shuningdek Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Turli soha mutaxassislari o'z ona tilini mukammal bilish bilan bir qatorda, bir nechta xorijiy tillarni bilishlari va muloqot qila olishlari maqsadga muvofiq....".³ Shu nuqtai nazardan o'quvchilarning noto'g'ri, mantiqqa zid qarama-qarshi fikrlari takrorlanmasligi, balki qo'llab-qo'vvatlanishi va bu fikrlarga boshqalar munosabat bildirish choralarini ko'rish lozim

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Prezident Shavkat Mirziyoyev** "chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari "yuzasidan o'tkazilgan videoselektor .06.05.2021
2. **Prezident Shavkat Mirziyoyev** " Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish tog'risida" PQ 34-son.19.01.2022

³ Prezident Shavkat Mirziyoyev "chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari "yuzasidan o'tkazilgan videoselektor .06.05.2021

3. **3.Turegaliyeva N.N.** Maktab o'quvchilarining chet tilida gapirish ko'nikmasini rivojlantirish yo'llari. Ajiniyoz nomidagi NDPI 1-bosqich doktoranti.2024
4. **4.Ismatullayeva Madinabonu Akmaljon qizi.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilidagi so'zlarni tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirish. ADPI 2-kurs Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti.2024
5. **Qodirov A.** Interaktiv usullar yordamida til o'rganish. Samarqand: O'zbek nashriyoti. Til o'rganishda o'yinlar, rolli o'yinlar va boshqa interaktiv metodlar asosida amaliy tavsiyalar berilgan.2024
6. **Urqulchiyova M.** Maktab yoshidagi bolalarda chet tilini o'qitish metodikasi. Toshkent: Oliy ta'lim nashriyoti. Maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallangan metodik yondashuvlar va interaktiv dars uslublariga bag'ishlangan tadqiqot.2024
7. **Richards J. C & Rodgers T. S.** Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press. Ushbu kitob til o'rgatish uslublari, jumladan, kommunikativ yondashuvni chuqur tahlil qiladi.2024
8. **Harmer J.** The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman. Praktik metodlar, audiovizual materiallar va interaktiv mashg'ulotlar yordamida til o'rgatish usullarini batafsil ko'rib chiqadi.2007
9. **Lightbown P.M & Spada N.** How Languages are Learned. Oxford University Press. Til o'rganish jarayonining psixologik va metodik jihatlari, ayniqsa yosh bolalarda tilni o'rganish jarayoni haqida ma'lumot beradi.2013
10. **10.Karimova Dilnoza Choriyevna, Madiyeva Madina Yusupovna.** Maktab yoshidagi bolalarda o'qish ko'nikmalarini shakllantirish. PEDAGOGS INTERNATIONAL RESEARCH JOURNAL, 68(1).2024